

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

TILLABOYEV SHOHRUXBEK MIRZATILLO O‘G‘LI

**RAQAMLI DAVRDA INTELLEKTUAL
MULKKA BO‘LGAN HUQUQLARNI XALQARO-HUQUQIY
TA‘MINLASH MUAMMOLARI**

12.00.10 – Xalqaro huquq

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)
Оглавление автореферата диссертации доктор философии (PhD)

Tillaboyev Shohruxbek Mirzatillo o'g'li Raqamli davrda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni xalqaro-huquqiy ta'minlash muammolari.....	3
Тиллабоев Шохрухбек Мирзатилло угли Проблемы международно-правового обеспечения прав на интеллектуальную собственность в цифровую эпоху	23
Tillaboev Shohruxbek Mirzatillo ogli Problems of international legal enforcement of intellectual property rights in the digital age	47
E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati List of published scientific works Список опубликованных научных работ.....	52

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

TILLABOYEV SHOHRUXBEK MIRZATILLO O‘G‘LI

**RAQAMLI DAVRDA INTELLEKTUAL
MULKKA BO‘LGAN HUQUQLARNI XALQARO-HUQUQIY
TA‘MINLASH MUAMMOLARI**

12.00.10 – Xalqaro huquq

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Yu1260 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD) Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsul.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Rustambekov Islambek Rustambekovich, yuridik fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Toshev Boboqul Norqobilovich, yuridik fanlar doktori, professor Umarxanova Dildora Sharipxanovna, yuridik fanlar doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 28-avgust soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; Faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1382-raqam bilan ro'yxatga olingan; manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" avgust, ___-raqamli reyestr bayonnomasi).



S.S. Gulyamov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

Sh.N. Raxmanov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

D.N. Maxkamov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori (DSc), professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda hozirgi raqamli transformatsiya va kiberkoinotda chegaralarning yo‘qolishi davrida intellektual mulk zamonaviy huquqiy tizimning asosi – poydevoriga aylangan. Bugungi kunda intellektual mulk shunchaki huquqiy toifa emas, balki insonning fundamental madaniy huquqi bo‘lib, u Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktda mustahkamlangan va Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Barqaror rivojlanish maqsadlariga kiritilgan. Yuz berayotgan o‘zgarishlar keng ko‘lamda namoyon bo‘lmoqda. Masalan, Butunjahon intellektual mulk tashkilotining (BIMT) hisobotiga ko‘ra, raqamli texnologiyalar global patent sohasida ustunlik qilmoqda va ixtirolar bo‘yicha barcha arizalarning 22,1 foizini tashkil etmoqda. Xitoy (12,9 %), AQSh (12,1 %), Koreya Respublikasi (11,7 %), Yaponiya (9,9 %) va Germaniya (9,4 %) yetakchi o‘rinlarni egallab, texnologik innovatsiyalar bo‘yicha global raqobatni aks ettirmoqda¹. Blokcheyn, sun‘iy intellekt, raqamli platformalar kabi inqilobiy texnologiyalar an‘anaviy huquqiy tartibga sig‘maydigan mutlaqo yangi intellektual mulk obyektlarini yuzaga keltirmoqda. Bu mavjud himoya mexanizmlarini moslashtirish va innovatsion huquqiy yondashuvlarni ishlab chiqishga keskin ehtiyoj tug‘diradi.

Jahon miqyosida yuzaga kelgan global huquqiy tarqoqlik intellektual mulkni himoya qilish yo‘lida jiddiy to‘siqqa aylangan. Milliy huquqiy tizimlar raqamli obyektlarni muhofaza qilishda mutlaqo turlicha yondashuvlarni namoyon etib, xalqaro hamkorlikni izdan chiqarayotgan va huquq egalarining manfaatlarini xavf ostiga qo‘yayotgan huquqiy betartiblikni yuzaga keltirmoqda. Shu bois, raqamli davrda intellektual mulk huquqlarini ta‘minlash nafaqat dolzarb ilmiy muammo, balki jahon hamjamiyatining barqaror rivojlanishidagi strategik imperativga aylanmoqda.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda intellektual mulk tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan kompleks islohotlar samarali amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev intellektual mulk obyektlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan tadbirda, agar intellektual mulkni himoya qilish masalasi davlat darajasiga ko‘tarilmasa, O‘zbekiston hali o‘n yildan keyin ham raqobatbardosh bo‘la olmasligini ta‘kidlagan edi². O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi intellektual mulkni kafolatli himoya qilishning asoslarini belgiladi, xususan, Konstitutsiyaning 53-moddasida ilmiy, texnik va badiiy ijod erkinligi hamda madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlangan. Bundan tashqari, O‘zbekiston tarixida ilk bor 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi qabul qilindi, u mamlakatda intellektual mulk sohasini takomillashtirish bo‘yicha kompleks choralarni nazarda tutadi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyalarida intellektual

¹ WIPO IP Facts and Figures 2024 // URL: <https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo-pub-943-2024-en-wipo-ip-facts-and-figures-2024.pdf>

² Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish masalalari muhokama qilindi // URL: <https://president.uz/oz/lists/view/3887>

mulkni an'anaviy va raqamli muhitda huquqiy himoya qilish choralari alohida e'tibor qaratilgan. Bularning barchasi O'zbekistonda intellektual mulk sohasidagi qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish hamda raqamli davrda intellektual mulk huquqlarini ta'minlash tizimlarini takomillashtirish dolzarbligini yaqqol ko'rsatadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (2023), Ijrochilar, fonogramma tayyorlovchilar va eshittirish tashkilotlari huquqlarini muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiya (Rim, 1961), Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida Bern konvensiyasi (1886), Butunjahon intellektual mulk tashkilotining mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasiga (Jeneva, 1996), Butunjahon intellektual mulk tashkilotining ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartnomasiga (Jeneva, 1996), shuningdek, quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarda: O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi (2001), "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi (2002), "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi (1994), "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi (2006), "Axborotlashtirish to'g'risida"gi (2003) qonunlarida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 6-iyuldagi "2022 – 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlarida nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha belgilangan ustuvor yo'nalishlarga mos keladi. Xususan, "Innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularning axborot jamiyati hamda demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishida amalga oshirilish yo'llarini ishlab chiqish" yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xalqaro-huquqiy jihatdan raqamli davrda intellektual mulk huquqlarining ta'minlanishi masalalarini kompleks o'rganish ushbu tadqiqot doirasida hali alohida ilmiy izlanish obyekti sifatida to'liq o'rganilmagan. Shu bilan birga, intellektual mulk huquqlarini raqamli muhitda xalqaro-huquqiy jihatdan tartibga solish bilan bog'liq ayrim masalalar qator mahalliy olimlarning ilmiy asarlarida ma'lum darajada yoritilgan. Jumladan, bu masalalar A.X. Saidov, O. Oqyulov, S.S. Gulyamov, I.R. Rustambekov, B.N. Toshev, A.B. G'ofurov, I.I. Nasriev, Sh.A. Hudjayev, A.A. Yuldashev, Z.S. Ubaydullayev, G.A. Xudayberdiyeva, A.V. Ubaydullayeva, I.B. Yakubova,

F.X. Nabiyev va boshqa olimlarning ilmiy ishlanmalarida muayyan darajada ko‘rib chiqilgan.

Shuningdek, intellektual mulk huquqlarini xalqaro-huquqiy tartibga solishning turli jihatlarini MDH davlatlari olimlarining nashrlarida ham aks etgan bo‘lib, bu masala A.I. Abdullin, K.M. Belikova, I.A. Bliznes, M.A. Fedotov, B.A. Shaxnazarov, Y.S. Grin, L.A. Novosyolova, Y.A. Voynikanis, E.P. Gavrilov, V.A. Dozorsev, G.K. Dmitriyeva, I.A. Zenin, T.E. Kaudirov, A.A. Karsxiya, M.N. Kuznetsov, O.V. Lutkova, P.M. Morxat, A.G. Sergo, R.I. Sitdikova, V.F. Yakovlev va boshqalarning ilmiy ishlarida muayyan darajada yoritilgan.

Raqamli transformatsiya sharoitida intellektual mulk huquqlarining nazariy asoslari va amaliy jihatlarini xorijiy davlatlarda quyidagi olimlarning ilmiy ishlarida chuqur o‘rganilgan: L. Bentley, P. Torremans, J. Holyoak, P. Petkoff, O. Gurgula, H. Boshier, G.W.F. Hegel, J. Jennings, P. Drukker, J. Drexler, R. Dumas, M. Castells, J. Lokke, L. Lessig, R. Merges, J. Reichman, M. Risolfi, D. Saichel, S.H. Song, R. Tallin, A. Taubman, T. Forester, P. Hugenholtz, P.K. Shannon, E. Toffler, M. Fikser, W. Hetzer, A. Himmelreich, R. Zimmermann, T. Chiu, B. Sherman, W. Fisher va boshqalar. Bu olimlarning ishlari raqamli davrda intellektual mulk obyektlarini himoya qilish, ularning huquqiy maqomini aniqlash va zamonaviy global chaqiriqlarga javob beruvchi xalqaro-huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishga katta hissa qo‘shgan¹.

Yuqorida qayd etilgan mualliflarning ilmiy ishlari shuni ko‘rsatadiki, xalqaro huquq fanlari doirasida raqamli davrda intellektual mulk huquqlarining xalqaro-huquqiy asoslarini tartibga solish masalalari batafsil tarzda muhokama etilmagan va yetarli darajada fundamental tadqiqot obyektiga aylanmagan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, intellektual mulk huquqlarini xalqaro-huquqiy ta‘minlashning nazariy va amaliy asoslari O‘zbekiston Respublikasida hamon to‘liq va kompleks ravishda o‘rganilmagan hamda mustaqil tadqiqot mavzusi sifatida alohida tarzda tahlil etilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ilmiy-tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-innovatsion ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamlashtirish sharoitida intellektual mulk huquqini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari va mexanizmlarini hamda O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-nazariy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Intellektual mulk huquqlarining xalqaro huquqdagi genezisi va rivojlanishini o‘rganish;

Intellektual mulk huquqlarini tartibga solish bo‘yicha doktrinal yondashuvlarni tahlil qilish;

Raqamli davrda intellektual mulk huquqlarini himoya qilishni tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy hujjatlarni o‘rganish;

¹ Mazkur va boshqa olimlarning asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Raqamlashtirish sharoitida intellektual mulk huquqlarini tartibga solishning universal va mintaqaviy mexanizmlarini tahlil qilish;

Raqamlashtirish sharoitida intellektual mulkni himoya qilishda BIMTning o'rnini va ahamiyatini o'rganish;

Xalqaro huquqiy normalarni takomillashtirish va ularni O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti raqamlashtirish sharoitida intellektual mulkni xalqaro huquqiy tartibga solish bo'yicha xalqaro-ommaviy munosabatlardir.

Tadqiqotning predmeti raqamli davrda intellektual mulk huquqlarini ta'minlashga qaratilgan xalqaro-huquqiy shartnomalarni hamda xalqaro tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy vositalardan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda tarixiy, tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy, sotsiologik, statistik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, umumlashtirish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt sohasini xalqaro-huquqiy tartibga solish bo'yicha amaldagi standartlarni takomillashtirish zarurligi asoslab berildi. Bunda davlatlarning mas'uliyatini kuchaytirish, xalqaro hamjamiyat e'tiborini intellektual mulk huquqlari va inson huquqlariga bo'lgan ta'sirga qaratish, raqamli xavf-xatarlar bilan bog'liq tahdidlarni minimallashtirish va davlat hamda jamoat boshqaruvida barqaror raqamli transformatsiyani tartibga soluvchi mexanizmlarni joriy etish asoslantirilgan;

Internetda intellektual mulk obyektlaridan noqonuniy foydalanilishining oldini olish maqsadida veb-saytlar, sahifalar va boshqa raqamli platformalar, shu jumladan blogerlarning mas'uliyatini belgilashga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi. Bunda qonunchilikka zid harakatlarning oldini olish va xalqaro huquq normalariga rioya etilishini ta'minlash asoslab berilgan;

O'zbekiston Respublikasining Sanoat mulkini muhofaza qilish sohasida hamkorlik to'g'risidagi Parij konvensiyasi (1883-yil) doirasidagi xalqaro majburiyatlarini bajarish yuzasidan sanoat mulk obyektlariga arizalar topshirish tartibi va ustuvorlik huquqini aniqlash jarayonini elektron ro'yxatdan o'tkazish orqali takomillashtirish bo'yicha aniq choralar joriy etish asoslantirilgan;

TRIPS bitimining 31-moddasiga muvofiq, sanoat mulki obyektlaridan foydalanilmaganda yoki yetarlicha foydalanilmaganda majburiy litsenziyalash mexanizmini joriy etish zarurligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sistemali-strukturaviy va funksional ilmiy tadqiqot usullari asosida muallif tomonidan "Intellektual mulkka bo'lgan huquqlar" hamda "Intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni ta'minlash" tushunchalarining ta'rifi shakllantirildi;

xalqaro-huquqiy tizimli tahlil asosida, raqamlashtirish sharoitida intellektual mulk huquqlarini tartibga soluvchi xalqaro normalarni moslashtirish va milliy qonunchilikka joriy etish mexanizmini o'z ichiga olgan qoidalarni BIMT kabi universal xalqaro hujjatlarda nazarda tutish zarurligi asoslab berildi;

raqamli muhitda intellektual mulk huquqlarini himoya qilishni, raqamli texnologiyalarning ahamiyati va ularning intellektual mulkka ta'sirini aks ettiruvchi "Raqamli intellektual mulk huquqlari to'g'risida"gi konvensiya loyihasi taklif etildi (*1-ilovada taqdim qilingan*);

xorijiy tajribani o'rganish asosida, O'zbekiston Respublikasining tegishli milliy qonunchiligiga "Onlayn platformalarda mualliflik huquqlarini himoya qilish" nomli yangi moddani kiritish bo'yicha taklif ishlab chiqildi;

tadqiqot natijasida raqamli muhitda intellektual mulk huquqlarini ta'minlashga qaratilgan xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilikka qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish zarurati asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyoti, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari bilan umumlashtirilib, sotsiologik so'rovnoma (*300 dan ortiq respondent*) ma'lumotlari bilan tasdiqlangan. Ishning xulosalari, takliflari va tavsiyalari aprotatsiyadan o'tdi, ularning natijalari yetakchi mahalliy va xorijiy nashrlarda, xalqaro hamda respublika seminarlari va konferensiyalari to'plamlarida e'lon qilindi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, undagi taklif va tavsiyalar, ilmiy-nazariy xulosalar intellektual mulk huquqi, raqamli intellektual mulk obyektlari huquqi sohasidagi tegishli normalarni sharhlash, ilm-fan, qonunchilik faoliyati, huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirishga, milliy qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin. Ushbu natijalar bir qator fanlar, jumladan, "Xalqaro ommaviy huquq", "Xalqaro shartnomalar huquqi", "Xalqaro intellektual mulk huquqi", "Xalqaro tashkilotlar huquqi" va "BIMT huquqi" kabi fanlarni o'qitish jarayonida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot yakunida ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar va takliflar huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirishda ham qo'llanilishi mumkin bo'lib, ular intellektual mulk huquqi va xalqaro intellektual mulk huquqi sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishni to'liqroq ta'minlash, fuqarolar hamda yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijalar ixtisoslashtirilgan OTMlar va oliy ta'limdan keyingi jarayonda qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ilmiy tadqiqot doirasida olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

intellektual mulk huquqlarini ta'minlash, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq tahdidlarni minimallashtirish, shuningdek, davlat va jamiyat boshqaruvidagi raqamli transformatsiyani tartibga solish bo'yicha ishonchli mexanizmlarni yaratishga, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni tartibga solish sohasidagi xalqaro-huquqiy standartlarni ishlab chiqishga, davlatlarning mas'uliyatini kuchaytirishga va ularning intellektual mulk huquqlari hamda inson huquqlariga ta'siri masalalariga xalqaro hamjamiyat e'tiborini oshirishga qaratilgan takliflar BMT Bosh Assambleyasining quyidagi rezolyutsiyalarini tayyorlashda foydalanilgan: 2024-yil 21-martdagi №78/265-sonli "Barqaror taraqqiyot uchun xavfsiz, himoyalangan va ishonchli sun'iy

intellekt tizimlaridan foydalanish” va 2023-yil 19-dekabrda №78/213-sonli “Raqamli texnologiyalar kontekstida inson huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilish” rezolyutsiyalari (*O‘zbekiston Respublikasining BMTdagi Doimiy vakilining 2024-yil 17-oktabrdagi №034/1039-sonli dalolatnomasi*).

Intellektual mulk obyektlaridan noqonuniy foydalanishning oldini olish maqsadida, internet tarmog‘idagi veb-saytlar, sahifalar va boshqa axborot resurslari, jumladan blogerlar tomonidan noqonuniy harakatlarning oldini olishga qaratilgan taklif 2003-yil 11-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni 12¹-moddasining birinchi qismi ishlab chiqilishida qo‘llanilgan (*“Milliy tiklanish” Demokratik partiyasining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi fraksiyasining 2024-yil 6-dekabrda №02/-05-1-sonli dalolatnomasi*).

Sanoat mulki obyektlariga ustuvorlik huquqini aniqlash tartibini takomillashtirish, xususan: “Konvensiya bo‘yicha ustuvorlikni aniqlash talabi ariza topshirilgan paytda (tegishli ustunga belgilangan) yoki vakolatli organga ariza kelib tushgan kundan e‘tiboran ikki oy ichida taqdim etilishi mumkin”, – degan taklif 2023-yil 19-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №480-sonli qarori bilan tasdiqlangan Tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarini ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmati ko‘rsatish ma‘muriy reglamentining 16-band 2-kichik bandini ishlab chiqishda qo‘llanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahliliy va huquqiy ta‘minot departamentining 2024-yil 1-martda №12-15-20-sonli dalolatnomasi*).

Sanoat mulki obyektlariga nisbatan majburiy litsenziyalash mexanizmini joriy etish bo‘yicha taklif 2024-yil 15-fevralda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim normativ-huquqiy hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunining 111-moddasi ishlab chiqilishida qo‘llanilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishi doirasida xalqaro majburiyatlarini samarali bajarishga xizmat qilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 26-fevralda №02/6-09-43-sonli dalolatnomasi*).

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta ilmiy-amaliy tadbirda, jumladan 5 ta respublika va 7 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, shu jumladan 9 ta ilmiy maqola (3 ta xorijiy nashrlarda), 10 ta ilmiy konferensiyalar to‘plamida maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, asosiy uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va intellektual mulk (IM) huquqlarini xalqaro-huquqiy ta‘minlash muammolarini tadqiq etish zarurati asoslab berilgan, mavzuga oid xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi,

tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, metodlari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi, natijalarning chop etilishi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobiga **“Raqamli davrda intellektual mulk huquqini xalqaro-huquqiy tartibga solishning konseptual asoslari”** nomi berilgan. Ushbu bobda intellektual mulk institutining xalqaro huquqdagi genezisi, evolyutsiyasi va transformatsiyasi raqamli davr chaqiriqlari nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Muallif tomonidan nazariy yondashuvlar, xalqaro normativ hujjatlar va raqamlashtirish, globallashtirish va texnologik taraqqiyot sharoitida yuzaga kelayotgan amaliy muammolar yoritilgan. Bob doirasida intellektual mulkka oid asosiy nazariy-huquqiy tushunchalar tahlil qilinib, uning xalqaro huquqiy rivojlanish bosqichlari XIX-XX asrlardagi klassik shartnomalardan tortib XXI asrning zamonaviy raqamli chaqiriqlarigacha aniqlangan.

Mazkur bob boshida intellektual mulk huquqlarining xalqaro huquq tarkibiy qismi sifatida shakllanishi va rivojlanishi ochib berilgan. Muallif mualliflik huquqining tarixiy bosqichlarini ushbu huquq sohasidagi ilk qonun – 1710-yilda qabul qilingan “Qirolicha Anna statuti”dan boshlab ko‘rib chiqqan¹. Shuningdek, dastlabki fransuz² va rus qonunlari³, 1883-yildagi Sanoat mulkini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Parij konvensiyasi (Parij konvensiyasi) hamda 1886-yildagi Adabiyot va san‘at asarlarini muhofaza qilish bo‘yicha Bern konvensiyasi doirasida xalqaro himoya institutining shakllanishi yoritilgan. Ushbu ikki konvensiya intellektual mulk huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish tizimining poydevori hisoblanadi.

Shuningdek, 1967-yilda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tashkil etilishi, uning global intellektual mulk himoyasi tizimini muvofiqlashtirish va rivojlantirishdagi o‘rni, hamda intellektual mehnat mahsulotlarini xalqaro huquqiy muhofaza qilishni tizimlashtirishda Stokgolm konvensiyasining ahamiyati batafsil ochib berilgan.

Bobning ikkinchi qismida muallif alohida e‘tiborni raqamli davrning asosiy bosqichlarini (**Web 1.0, Web 2.0, Web 3.0**) ajratish va ularning intellektual mulk (IM) obyektlarining yangi shakllari – dasturiy ta‘minot, ma‘lumotlar bazalari, raqamli platformalar, NFT hamda sun‘iy intellekt shakllanishiga ta‘sirini o‘rganishga qaratgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamlashtirish nafaqat intellektual mahsulotlarni yaratish va tarqatish usullarini, balki ularning huquqiy himoya modellarini ham tubdan o‘zgartirgan.

Alohida paragrafda raqamlashtirish sharoitida intellektual mulkning (IM) xalqaro huquqiga oid zamonaviy doktrinal yondashuvlar tahlil qilingan. Muallif A.X. Saidov, S.S. Gulyamov, B.N. Toshev, A.B. G‘ofurov, I.R. Rustambekov, G. Yuldasheva, B.A. Shaxnazarov, I.A. Bliznets, Y. Benamu, P. Petkoff, X. Boshier, O. Gurgula kabi mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlarini tahlil qilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, intellektual mehnat mohiyatining zamonaviy talqini mualliflik, egalik va huquqni

¹ Bently L., Sherman B. The Making of Modern Intellectual Property Law. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 242 p.

² Закон от 19 июля 1793 года о правах авторов, Парламентские архивы 1787–1860 гг., том 67, стр. 349–350. Французский юридический портал Legifrance // <https://www.legifrance.gouv.fr>

³ Собрание узаконений Российской империи, 1-е собрание, 1828 г., № 350 // <https://elibrary.ru/nodes>.

qo'llash uslublari kabi an'anaviy toifalarni qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Doktrinalar yangi texnologik voqeliklarni inobatga olgan holda xalqaro normativ bazani yangilash zarurligini ta'kidlaydi. Muallifning fikriga ko'ra, zamonaviy mahalliy va xorijiy ilmiy yondashuvlar xalqaro-huquqiy tizimning normativ chegaralarini yangilash zarurati borligi borasida yakdil.

Muhim nazariy-huquqiy xulosa shuki, raqamli davrda intellektual mulk huquqlari inson huquqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu holat Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 27-moddasi¹ va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 15-moddasi² bilan tasdiqlanadi. Muallif tomonidan intellektual mulk huquqlari inson huquqlarining tarkibiy qismi sifatida, raqamli muhitda mualliflarning ma'naviy va moddiy manfaatlarini himoya qiluvchi, jamiyat va huquq subyektlari manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi tushuncha sifatida mualliflik ta'rifi shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning 1.3-paragrafi intellektual mulk huquqlarining raqamli davrdagi huquqiy asoslarini shakllantiruvchi xalqaro shartnomalarni tadqiq etishga bag'ishlangan. Muallif Internet, Web 2.0–3.0 texnologiyalari, raqamli platformalar, NFT hamda sun'iy intellektning jadal rivojlanishi mavjud xalqaro-huquqiy yondashuvlar va mexanizmlarni qayta ko'rib chiqishni talab etishini alohida ta'kidlaydi.

Alohida e'tibor intellektual mulk sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro huquqiy hujjatlarga qaratilgan, jumladan, Bern konvensiyasi,³ TRIPS bitimi,⁴ BIMT mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasi⁵ va 1996-yilda qabul qilingan BIMT ijro va fonogrammalar bo'yicha shartnomasi⁶. Internetdagi asarlarni himoya qilishning formal jihatlariga tanqidiy yondashuv bildirilgan, vaqtinchalik nusxa ko'chirish, raqamli ko'paytirish, ommaga yetkazish kabi masalalar, shuningdek, turli mamlakatlarda (AQSh, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari) huquqiy malaka berishdagi muammolar muhokama qilingan. Shu bilan birga, muallif mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlarni takomillashtirish yo'nalishlarini ham taklif qilgan.

Mualliflik huquqlarini himoya qilish sohasidagi asosiy hujjatlardan biri 1886-yilgi Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasidir. Garchi ushbu hujjatning dastlabki tahriri urushgacha bo'lgan davrda qabul qilingan bo'lsa-da, 9-moddada belgilangan ko'paytirish huquqi prinsiplari raqamli nusxalash va tarqatishga ham tatbiq etilishi mumkinligi talqin qilinadi. Dissertatsiyada raqamli shakldagi asarlar – matnlar, tasvirlar, audio va video fayllar – ularning ifodalanish usuli yoki tashuvchisidan qat'i nazar, an'anaviy asarlar bilan teng darajada himoya qilinishi

¹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – T.: Adolat, 2023. – B. 25.

² Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro pakt // Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalari to'plami – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. – B. 34.

³ Адабий ва бадий асарларни муҳофаза қилиш тўғрисидаги Берн конвенцияси // Муаллифлик ҳуқуқи ва турдosh ҳуқуқларга оид халқаро шартномалар тўплами. – Т., 2025. – Б. 9 – 78.

⁴ Соглашение по торговым аспектам прав интеллектуальной собственности (ТРИПС). Марракеш, 15 апр. 1994 г. // WTO Legal Texts. URL: https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/27-trips.pdf.

⁵ Договор ВОИС по авторскому праву (WCT). Женева, 20 дек. 1996 г. // WIPO Lex. URL: <https://www.wipo.int/treaties/en/ip/wct/>.

⁶ Договор ВОИС по исполнению и фонограммам (WPPT). Женева, 20 дек. 1996 г. // WIPO Lex. URL: <https://www.wipo.int/treaties/en/ip/wppt/>.

ta'kidlanadi. Ilmiy adabiyotda keng muhokama qilinayotgan vaqtinchalik nusxa ko'chirish masalasi ham alohida tahlil qilingan. Muallif S.A. Sudarikov, I.A. Bliznets, K.B. Leontyev kabi tadqiqotchilar pozitsiyalarini umumlashtirib, vaqtinchalik saqlashning huquqiy tabiati borasidagi yondashuvlardagi tafovutlarga e'tibor qaratgan.

Bobning alohida bo'limi raqamli muhitda intellektual mulkni himoya qilish bo'yicha xalqaro sud amaliyotini tahlil qilishga bag'ishlangan. Muallif Yevropa Inson huquqlari bo'yicha sudining Pirate Bay ishi, Shveysariya sudlarining "Facebook" va "Google" bo'yicha qarorlari, shuningdek, unutilish huquqi bo'yicha "Google Spain" ishi misollarini keltirgan. Ushbu ishlar shuni ko'rsatadiki, raqamli adolat sohasida xalqaro miqyosda intellektual mulkni himoya qilish nafaqat yagona huquqiy normalarni, balki yurisdiksiyalararo institutsional hamkorlikni ham talab etadi.

Kompleks xalqaro normalar va pretsedentlar tahliliga asoslanib, muallif an'anaviy xalqaro shartnomalar (Bern konvensiyasi, TRIPS, BIMT shartnomalari) va raqamli davr chaqiriqlari o'rtasida jiddiy normativ va institutsional tafovut mavjudligi haqida xulosa qiladi. Zamonaviy raqamli obyektlar shakllari, jumladan, NFT va metaverslar, an'anaviy xalqaro shartnomalar doirasidan tashqariga chiqadi va bu holat huquqiy noaniqlik hamda himoya samaradorligining pasayish xavfini tug'diradi.

Bobning yakuniy qismida 300 nafar ekspert, shu jumladan milliy patent idoralari vakillari, professorlar va xalqaro tashkilotlar ishtirokida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari keltiriladi. So'rov natijalariga ko'ra, faqatgina 9,3 % respondentlar mavjud xalqaro normalarni raqamli muhitda samarali deb hisoblashgan. Ushbu ma'lumotlar dissertatsion tadqiqot mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi va raqamlashtirish sharoitida intellektual mulkni xalqaro-huquqiy tartibga solishni isloh qilish zarurligini asoslaydi.

Shu tariqa, birinchi bob butun dissertatsion ishning nazariy-huquqiy asosini belgilaydi hamda intellektual mulkni xalqaro-huquqiy himoya qilish tizimi raqamli davrda modernizatsiya qilinishi zarurligini isbotlaydi. Keltirilgan xulosalar raqamli transformatsiya sharoitida huquqiy himoyaning yangi konsepsiyalarini shakllantirish, samarali huquqni qo'llash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun zarur asoslarni ochib beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Raqamlashtirish sharoitida intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmlari"** deb nomlanib, intellektual mulkni xalqaro-huquqiy muhofaza qilishning universal va mintaqaviy jihatlarini kompleks o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu bob doirasida Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT), Jahon savdo tashkiloti (JST), YUNESKO, BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mitasi (IIMHQ qo'mitasi) kabi tashkilotlar doirasida amal qilayotgan xalqaro shartnomalar va mexanizmlar har tomonlama tahlil qilingan. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) doirasidagi intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bo'yicha mintaqaviy tizimlarning faoliyatiga xos xususiyatlar ham ko'rib chiqilgan. Raqamlashtirish sharoitida ushbu mexanizmlarning samaradorligi va ularni raqamli davr chaqiriqlariga moslashtirish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot davomida BIMT, JST va BMT doirasida amal qilayotgan universal mexanizmlarga alohida e'tibor qaratilgan. TRIPS bitimining huquqiy normalari, shu

jumladan “AQSh – 110(5) mualliflik huquqi to‘g‘risidagi qonun bo‘limi” ishi tahlil qilinib, raqamli kontekstda xalqaro standartlarga rioya etish muhimligi ta’kidlangan. Muallif BMTning mualliflar huquqlari va jamoat manfaatlarini o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashdagi rolini alohida ko‘rsatib, IIMHQ Qo‘mitasining Umumiy izohi №17 va Paktning 15-moddasi qoidalariga murojaat qiladi. Bobda YUNESKO faoliyati tahliliga alohida o‘rin ajratilgan. Muallif mazkur tashkilotning me‘yoriy hujjatlari — Mualliflik huquqi bo‘yicha butunjahon (Jeneva) konvensiyasi va 1961-yildagi Rim konvensiyasining (ijrochilar, fonogramma ishlab chiqaruvchilar va eshittirish tashkilotlari huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida) ahamiyatini asosli ravishda yoritadi, shuningdek, mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqarish va raqamli “qaroqchilikka” qarshi kurashishdagi tashabbuslarini ko‘rsatadi.

Hududiy mexanizmlarni tahlil qilish jarayonida, ayniqsa, MDH va Yevropa Ittifoqi (YI) misolida ikki asosiy mintaqaviy hamkorlik modeli sifatida alohida e‘tibor qaratilgan. MDH doirasida 1993-yil 24-sentabrda qabul qilingan Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim, shuningdek, intellektual mulkni huquqiy himoya qilish va muhofaza qilish sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitimning qoidalari tahlil qilingan. Alohida e‘tibor 2018-yilda qabul qilingan “Elektron hisoblash mashinalari (EHM) dasturlari va ma‘lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish to‘g‘risida”gi model qonun, shuningdek, 2021-yildagi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi model qonunga qaratilgan. Muallif mazkur hujjatlarning O‘zbekiston qonunchilik tizimiga implementatsiya qilinishi zarurligini ta’kidlaydi, xususan, dasturiy mahsulotlarning raqamli ro‘yxatdan o‘tkazilishi, elektron bildirishnomalar va raqamli huquqlarni boshqarish normalarini joriy etish lozimligini ko‘rsatadi.

Yevropa Ittifoqining tajribasi bobda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bo‘yicha huquqiy asos va institutsional tuzilma tahlili orqali yoritilgan. Jumladan, YIning yagona raqamli bozori doirasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi 2019/790-sonli direktivasi¹ hamda YIga a‘zo davlatlar o‘rtasida tovar belgilari huquqlarini yaqinlashtirishga oid 2015/2436-sonli direktivasi² qoidalari batafsil ko‘rib chiqilgan. Muallif, xususan, 2019/790-sonli direktivaning 15-moddasiga alohida e‘tibor qaratadi. Ushbu modda matbuot nashriyotlari uchun yangi turdosh huquqni (“havola solig‘i” deb nomlanadi) joriy etgan. Bobda O‘zbekiston qonunchiligini raqamli sohada modernizatsiya qilishda Yevropa tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqligi haqida xulosa berilgan.

Mazkur bobda muallif tomonidan raqamlashtirish sharoitida IMni himoya qilish bo‘yicha asosiy xalqaro tashkilot sifatida BMTning ixtisoslashgan agentligi – Butunjahon intellektual mulk tashkilotining (BIMT) roli o‘rganilgan. Xususan, domen nomlari bilan bog‘liq nizolarni hal etishga qaratilgan UDRP (Uniform Dispute Resolution Policy) protsedurasi asosida yuritiladigan ishlar tahlil qilingan va misol sifatida “*TAS Rights Management v. Osama Tariq*” ishi keltirilgan. Muallif ccTLD

¹ Directive (EU) 2019/790 of the European Parliament and of the Council of 17 April 2019 on copyright and related rights in the Digital Single Market // Official Journal of the European Union, L 130, 17.5.2019. URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32019L0790>.

² Directive (EU) 2015/2436 of the European Parliament and of the Council of 16 December 2015 to approximate the laws of the Member States relating to trade marks // Official Journal of the European Union, L 336, 23.12.2015. URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=C>.

(mamlakat kodli yuqori darajadagi domenlar) siyosatlarini UDRP standartlariga muvofiqlashtirish zarurligini asoslagan. Shuningdek, kiberbosqinchilik (cybersquatting) muammosining dolzarbligi va uni bartaraf etishga qaratilgan xalqaro huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

BIMT tomonidan 1996-yilda qabul qilingan Internetga oid ixtisoslashgan shartnomalar – Mualliflik huquqi to'g'risidagi shartnoma (DAP) va Ijrochilik hamda fonogrammalar to'g'risidagi shartnomaga (DIF) alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, BIMTning raqamli platformalari – **WIPO ALERT**, **WIPO PROOF**, **CASE** va **DAS** faoliyati tahlil qilingan. Doimiy mualliflik huquqi qo'mitasi (SCCR) doirasida olib borilayotgan faoliyat, sun'iy intellektni tartibga solish, raqamli asarlar va platformalar bilan mualliflar o'rtasidagi qiymat zanjiri uzilishi masalalari muhokamasi yoritilgan.

Bobning empirik qismida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari taqdim etilgan bo'lib, ular BIMT faoliyatining raqamlashtirish sharoitidagi samaradorligini baholaydi. 39,5 % respondent BIMT faoliyatini "yetarli" deb baholagan, biroq respondentlarning uchdan bir qismidan ortig'i raqamli islohotlarni, ayniqsa, sun'iy intellekt (AI) va NFT sohasida jadallashtirish zarurligini qayd etgan.

Shu tariqa, dissertatsiyaning ikkinchi bobida mulk huquqini xalqaro va milliy darajada himoya qilish mexanizmlari kompleks ravishda o'rganilgan. Tadqiqot natijalari ushbu institut rivojlanishining umumiy tendensiyalari bilan birga, turli huquqiy tizimlarda uning qo'llanilishidagi xususiyatlarni ham ochib beradi. O'tkazilgan tahlil ushbu sohada huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va himoya mexanizmlarining samaradorligini oshirish bo'yicha aniq takliflarni shakllantirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **"Raqamli davrda intellektual mulk huquqlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish"** deb nomlangan uchinchi bobi intellektual mulk sohasidagi xalqaro shartnomalarni raqamlashtirish chaqiriqlari nuqtayi nazaridan isloh qilish istiqbollari, shuningdek, xalqaro normalarning O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimiga implementatsiyasi va intellektual mulk huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining amaliy qo'llanilishini har tomonlama o'rganishga bag'ishlangan kompleks tadqiqotdir. Ushbu tadqiqot zamonaviy ilmiy konsepsiyalar, sud amaliyoti va intellektual mulk sohasidagi mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan ekspert so'rovnomasi natijalari asosida asoslab berilgan.

Muallif an'anaviy xalqaro hujjatlar – Bern konvensiyasi, TRIPS kelishuvi va BIMT shartnomalari raqamli davr talablari bilan mos kelmasligi natijasida yuzaga kelayotgan asosiy muammolarga e'tibor qaratadi. Ayniqsa, striming kabi raqamli nusxa ko'chirish turlari, NFT va generativ sun'iy intellektdan foydalanishga oid huquqiy chaqiriqlarga urg'u beriladi. B. Toshev, I. Rustambekov, A. G'ofurov, P. Torremans, P. Taubman va A. Fichor kabi yetakchi tadqiqotchilarning fikrlariga asoslanib, global raqamli kontent tarqalishi sharoitida mualliflik huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining cheklangani va raqamli huquqlarni tartibga soluvchi universal tizimning yo'qligi qayd etiladi.

Bern konvensiyasi, TRIPS bitimi hamda BIMTning 1996-yilgi internet shartnomalari (WCT va WPPT) asosiy normalari tahlil qilinib, ularning ko'plab qoidalari kompyuterlar davrigacha shakllangan bo'lib, raqamli nusxa ko'chirish, oqim

uzatish, virtual aktivlar va algoritmik tarzda yaratilgan kontentlarni qamrab olmasligi aniqlangan.

Muallif Bern konvensiyasining 9-moddasida ko'rsatilgan "nusxa ko'chirish huquqi" atamasi eskirganligini ta'kidlaydi hamda u raqamli nusxa olish, vaqtincha saqlash (keshlash), striming kabi holatlarni ham qamrab olishini aniqlashtirish zarurligini bildiradi. Shuningdek, "jamoatchilikka yetkazish" tushunchasi (Bern konvensiyasi 11bis-moddasi va WCT 8-moddasi) kengaytirilishi lozimligi, ijtimoiy tarmoqlar, striming platformalari va metaversedagi foydalanish shakllarini ham qamrab olishi lozimligi ta'kidlanadi.

Muallif TRIPSning 16-moddasini kengaytirish zarurligini asoslab beradi – bunda raqamli tovar belgilari, jumladan NFT, virtual mahsulotlar, metaverse va domen nomlari bo'yicha himoyani nazarda tutish kerakligi bildiriladi. Shuningdek, axloqiy huquqlarni (Bern konvensiyasi 6 bis-modda) xalqaro majburiyatlar doirasiga kiritish zarurati qayd etiladi.

TRIPSning 61-moddasidagi jinoiy choralar haqidagi qoida kam amaliyotda qo'llanilayotganligi ko'rsatiladi. Muallif uni transchegaraviy yurisdiksiya, raqamli dalillarga asoslanish va internet provayderlarining javobgarligi bilan boyitishni taklif etadi.

Xulosa o'rnida muallif xalqaro hujjatlarning alohida qoidalarini qayta ko'rib chiqish emas, balki shartnomaviy bazani tubdan yangilash zarurligini, yangi protokollar ishlab chiqish va yagona raqamli IM tamoyillarini ishlab chiqishni ilgari suradi.

BIMT shartnomalaridagi "jamoatchilikka yetkazish" tushunchasini kengaytirish, raqamli asarlarni himoya qilish uchun yangi huquqiy normalarni joriy qilish taklif etiladi. Internet platformalarida IMni himoya qilish, jamoaviy boshqaruv mexanizmlarini raqamli monitoring va daromadlarni oshkora taqsimlash orqali yangilash zarurligi qayd etiladi. Muallif xalqaro normalarning raqamli muhitga moslashmaganligini (AI va NFT doirasida) tasdiqlaydi va huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar beradi.

AQShdagi mualliflik huquqlarining raqamli tartibga solinishi (DMCA, Napster va ALS Scan sud amaliyoti) va Yevropa Ittifoqidagi yangi yondashuvlar (masalan, "link solig'i", platformalarning majburiyatlari) tahlil qilinib, bu tajribalardan xalqaro standartlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bildiriladi.

O'zbekiston qonunchiligiga xalqaro standartlarni implementatsiya qilish, xususan, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunning 12.1-moddasidagi raqamli kontentga oid bo'shliqlar ko'rib chiqilib, BIMT shartnomalari va YI tajribasiga mos tahririy o'zgarishlar taklif etiladi.

Muallif konvensiyaviy prioritetni (Parij konvensiyasi) amalga oshirish tartibi va majburiy litsenziyalash mexanizmini (TRIPS, 31-modda) takomillashtirish zarurligini asoslaydi. U, shuningdek, raqamli va texnik to'siqlar yuzasidan prioritet muddati uzaytirilishi uchun huquqiy asoslar yaratish zaruratini ilgari suradi.

Bob yakunida IMning raqamli barqarorligini ta'minlaydigan kompleks mexanizm zarurligi qayd etiladi. Taklif etilgan chora-tadbirlar milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, mualliflik huquqlarini raqamli muhitda

himoya qilish va O‘zbekistonning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, uchinchi bob raqamlashtirish sharoitida intellektual mulk huquqlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo‘yicha amaliy jihatlarni har tomonlama o‘rgangan, zamonaviy chaqiriqlar va xalqaro normalarning moslashuv imkoniyatlariga asoslangan ilmiy asosli tadqiqotdir. Shu bilan birga, bu bobdagi xulosalar va takliflar O‘zbekiston qonunchiligini yanada rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida ilmiy-nazariy, qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1.1. Intellektual mulk huquqlarini ta‘minlash faqat milliy tartibga solishdan ko‘p darajali xalqaro-huquqiy tizimga o‘tgan evolyutsiyani boshdan kechirdi. Ushbu jarayonning muhim bosqichi sifatida global standartlarning shakllanishiga asos bo‘lgan asosiy universal kelishuvlar – Bern va Parij konvensiyalarining qabul qilinishi bo‘ldi. Keyinchalik ushbu tartibga solish BIMT va JST doirasida institutsionallashtirildi, shuningdek, Yevropa Ittifoqi va MDH huquqiy aktlarini o‘z ichiga olgan mintaqaviy mexanizmlar bilan to‘ldirildi. Zamonaviy taraqqiyot bosqichi mazkur tizimni raqamli davr chaqiriqlariga moslashtirish zarurati bilan tavsiflanadi, bu esa intellektual mulk faqat huquqiy va iqtisodiy toifa sifatida emas, balki global raqamli sharoitda shaxsning fundamental huquqlari elementi sifatida ham tan olinganini anglatadi.

1.2. Intellektual mulk sohasidagi xalqaro tartibga solishning rivojlanishi amaldagi xalqaro bitimlar qoidalari va yangi raqamli haqiqat o‘rtasida sezilarli normativ va institutsional tafovut mavjudligini ko‘rsatdi. Taraqqiyotning bugungi bosqichi striming, vaqtinchalik nusxa ko‘chirish, NFT, generativ sun‘iy intellekt va raqamli platformalar kabi hodisalarning paydo bo‘lishi sababli mavjud normalarni qayta ko‘rib chiqish va yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu tafovut jamiyatning texnologik transformatsiyasi sharoitida xalqaro-huquqiy mexanizmlarni zamonaviylashtirish lozimligini ta‘kidlaydi.

1.3. Intellektual mulk huquqlarini raqamli makonda himoya qilish xalqaro huquqda inson huquqlari tizimining tarkibiy qismi maqomini kasb etgan bo‘lib, u klassik mulk huquqiga o‘xshash tarzda milliy huquqiy ta‘riflardan mustaqil “avtonom” xarakterga ega. Buning isboti sifatida Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 15-moddasi hamda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 27-moddasida har bir insonning madaniy hayotda ishtirok etish, ilmiy taraqqiyot natijalaridan foydalanish va har qanday ilmiy, adabiy yoki san‘at asaridan kelib chiqadigan ma‘naviy va moddiy manfaatlarini himoya qilish huquqi mustahkamlangan.

1.4. Raqamlashtirish va global axborot ekotizimlarining transformatsiyasi intellektual huquqlar mohiyatini qayta ko‘rib chiqishni dolzarb masalaga aylantirdi. Mazkur tadqiqot doirasida “*intellektual mulk huquqlari*” va “*intellektual*

mulkka bo'lgan huquqlarini ta'minlash” tushunchalariga mualliflik ta'rifi berilgan hamda ularning yangi ijodiy faoliyat shakllarini, algoritmik tarzda yaratilgan kontentni va tarqoq raqamli aktivlarni qamrab olgan ko'p bosqichli huquqiy himoya modeli taklif etilgan:

“Intellectual mulk huquqlari – bu inson huquqlarining bir turi bo'lib, shaxsning ijodiy faoliyati natijasida yuzaga keladigan ma'naviy va moddiy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydi hamda adolat, mutanosiblik va bilimlarga umumiy kirish tamoyillariga rioya etgan holda muallifning jamiyatning madaniy va ilmiy hayotida munosib ishtirokini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u mualliflik huquqlarini, ixtirolar huquqlarini o'z ichiga oladi”;

“Intellectual mulkka bo'lgan huquqlarini ta'minlash – ixtirolar, adabiyot va san'at asarlari, savdo belgilari, patentlar, sanoat namunalari, dasturiy ta'minot kabi intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish, boshqarish va ularga rioya etish jarayonidir”.

1.5. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti intellektual mulk huquqlari buzilishi holatlarining ortishiga sabab bo'lmoqda va buning natijasida samarali xalqaro-huquqiy himoya vositalarini joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, domen nomlari bo'yicha nizolarni hal qilishning UDRP modeli, shuningdek, WIPO tomonidan ishlab chiqilgan WIPO PROOF, CASE va ALERT platformalari raqamli muhitda huquqlarni himoya qilish uchun yuqori salohiyatga ega ekanligi tadqiqotda aniqlangan. Shu bilan birga, ccTLD milliy domen tizimlarining parchalangani, standartlar yagona emasligi va ko'rsatilgan mexanizmlarning milliy huquqiy tizimlarga yetarlicha integratsiyalashmagani sababli, institutsional va protsessual to'siqlar mavjudligi aniqlangan. Bu holat ushbu vositalarning samarali qo'llanilishini ta'minlash maqsadida protsessual normalarni uyg'unlashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va qo'shimcha huquqiy kafolatlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

1.6. Intellektual mulk sohasidagi zamonaviy xalqaro huquq (IXMX) zamonaviy texnologik o'zgarishlarga tezkor moslasha olmaslik bilan bog'liq muammolar bilan to'qnash kelmoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, asosiy xalqaro hujjatlar – Bern konvensiyasi, TRIPS bitimi hamda WIPO tomonidan qabul qilingan WCT va WPPT kabi shartnomalar normativ inersiya belgilariga ega: ular kompyuterlar davrigacha ishlab chiqilgan va raqamli nusxa olish, striming, kontentni vaqtincha saqlash (keshlash) hamda internetdagi huquqbuzarliklarning yangi shakllarini to'liq qamrab olmaydi. Shunga ko'ra, IXMX asosiy tamoyillarini innovatsion qayta ko'rib chiqish, raqamli obyektlar va huquqbuzarlik uslublarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga oluvchi qoidalarni kiritish orqali xalqaro-huquqiy tizimni mustahkamlash lozimligi dolzarb bo'lmoqda.

1.7. Intellektual mulk huquqlarini milliy darajada samarali himoya qilish uchun qonunchilikni takomillashtirish, sud tizimini mustahkamlash va muqobil nizolarni hal qilish mexanizmlarini rivojlantirishni o'z ichiga oluvchi kompleks yondashuv zarur. Bu milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishni talab etadi.

